Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316010

I SHO'BA - HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

TA'LIMNING INNOVATSION USULLARI ORQALI IQTISODIY YONALISHDAGI TABALARINING KASBIY QOBILIYTLARINI SHAKLLANTIRISH

Djabbarov Muxammadxon Djabbarovich
TDIU Andijon fakulteti "Mutaxassislik fanlari"
kafedrasi katta o'qituvchisi

***Аннотация**: В статье рассматриваются инновационные методы обучения студентов экономических специальностей, позволяющих обеспечить подготовку грамотных специалистов, способных использовать полученные знания и навыки в своей профессиональной деятельности, а также самостоятельно продолжать обучение, адекватно и оперативно реагируя на изменения внешней среды.*

***Ключевые слова**: инновационные методы обучения, метод case-stady или метод конкретных ситуаций, метод проектов и деловые игры.*

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 –yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 3-bobining "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan 1-c da "Mustaqil ta'lim soatlari ulushuni oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, oquv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, oquv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogic texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish" masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Talabalarning professionai kompetensiyanisini shakllantirishning eng samarali yonalishi ta'limning innovatsion usullardan foydalanishdir. Bu ilmiy izlanishlar va ilgor tajriba natijasidir. Ta'lim innovatsiyon usullari ijodiy izlanish, doimiy uz ustida ishlash va talabaning rivojlanishga yonaltirilgan.

"Innovatsiya" lotinchada – yangilik, o'zgarishlar,yangilanish tarjimasi. Ta'lim soxasiga bu oqituvchi va talaba uzaro faoliyatiga yangi maqsadlar,ta'lim jarayoniga innovatsiyon usullar va shakllar kiritishni nazarda tutadi.

Talabalarni zamonaviy iqtisodiy bilimlarini shakllantirishda innovatsiyon usullarsiz professional kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayorlash, o'z-o'zini

Published: 17.05.2024

Cite this article: Djabbarov Muxammadxon Djabbarovich (2024). Ta'limning innovatsion usullari orqali iqtisodiy yo'nalishdagi talabalarining kasbiy qobiliytlarini shakllantirish. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316010

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

rivojlantirish, o’z-o’zini tarbiyalash va innovatsiyalarga qodir, ijodiy shaxsini shakllantirish, nostandart fikrlash, dunyoda bo’layotirgan uzgarishlarga tezkor javob berish demakdir. Iktisodiy yonalishdagi mutaxassislarni tayorlashda an’anaviy va innovatsion ta’lim usullaridan foydalanish kerak.

“Case-stady”usuli yoki aniq xodisalar usuli (inglizcha “case” – xodisa, situatsiya) – bu aktiv muammoli-xodisaviy usul tahlili, ta’limda aniq masalalar yechib olib boriladi – xodisalar (keyslarni echish).

Keyslar usuli talaba tomonidan tahlil va aniq xodisani echish ma’lum bir ssenariy orqali va mustaqil ish olib borish, akliy xujumda kichkina guruhlarda va taqdimot va taklif etilgan qarorni ximoya qiladi.

Keyslar usuli talabaning ijodiy rivojlanishi, muammolarni aniq xolatidan kelib chiqib xal etishni organadi, haqiqiy malumotlarga asoslanib. Xodisani tahlil qilib va aniq xolatini organib talaba uzida quyidagi sifatlarni rivojlantiradi, uz fukrini mustaqil ayta bilish va o’z fikrini situatsiya boyicha bilish, kommunikativ konikmalarni, baxslashni bilish, axborotni qabul qilish va uni baholash.

Bu texnologiyalardan **foydalanish quoyidagi natijalarni beradi:**

- ta’lim olishni faollashtiradi, talabalar konkret sharoitda, mustaqil qaror qabul qilishlari kerak boladi;
- fikrlashni, muammoni tahlil qilish va tashxis qoyish, xulosa qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- kommunikativ qobiliyatlarini, xamkorlik qobiliyatini , liderlik tuyg’usini, ishbilarmon odobini rivojlantiradi;
- orgnayotgan faniga va kelgusi professional faoliyatiga qiziqishini oshiradi.

Shunday qilib, keys-usulini amalga oshirish kelgusi mutaxassisda xodisani tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi, va samarali qarorlarni qabul qilishni or’g’atadi.

Innovatsion usullardan biri **ishbilarmonlik o’yinlar.** O’yinlar yordamida iqtisodiyatdagi real xolatlarni modellashtirish mumkin. Ishbilarmonlik o’yinlarning afzalligi nazariy bilimlarni amaliyotda qollash mumkinligidir. Hamma ishbilarmonlik o’yinlarda ularga hos emotsional tolikligi, ilm olish ishtiyoki oshishi, organayotgan faniga qiziqishi paydo bolishi aniqlangan.

O’yinlar sifatiga va natijasiga ta’sir etuvchi omillarni ajratishimiz mumkin:

1.Mavzuni tanlash, maqsadni va masalalarni aniqlash;

2.Talabalar orasida bilimi va psixologik xususiyatidan kelib chiqib rollarni taqsimlash;

3.O’yin strukturaviy-logik chizmasini, har bir xizmat, bolim, kichik guruhlarga topshiriqni ishlab chiqish;

4.Talabalar uchun o’yin hodisalarining toliq uslubiy korsatmasini ishlab chiqish;

5.Ko’rilayotgan mavzuga oid materiallarni talabalar tomonidan o’rganmoq va har xil variant qarorlarni qabul qilish;

6. Shakllangan kompetensiyalar darajasini korsatuchi natijalarni baholash tizimini ishlab chiqish,

Iqtisodiy yonalish mutaxassislari faoliyati yetarlicha har xil xodisalarga boy, shuning uchun ishbilarmonlik o’yinlarini qollash o’qish jarayonini faollashtirish va kelgusi professional faoliyatdga qiziqishni oshiradi.

Ishbilarmonlik o’yinlar otkazish natijalari shuni korsatadi:

- o’quv mashg’ulotlarida va modellashtirib organilgan muammolarga, ishbilarmonlik o’yinida oynalganlarga qiziqish oshgan;
- talabalar juda kop axborotlar olishga va ozlashtirishga, aniq masalalarda asoslangan, bu oz navbatida o’yin ishtiroqchilarning konikmalari shakllanishiga va konstruktiv qarorlarni qabul qilishga yordam bergan;
- o’yin qatnashchilarining analitik, iqtisodiy va psixologik fikrlashini rivojlantiradi;
- o’quvchilar o’z-o’zini baholashni o’rgarmoqda,

Iqtisodiy yonalish talabalarining o’quv maqsadlariga erishishda va professional kompetensiyalarni shakllantirishda ishbilarmonlik o’yinlarni tashkil qilish va otkazish o’zining samaradorligi bilan tasdiqlandi.

O’quv jarayonini samarali innovatsion usullaridan yana biri bu **loyihalar usuli,** talabalarga o’quv materiallarini samarali ozlashtirish va ularning ijodiy potensialini, bilimlarini oshirish va o’z –o’zini tarbiyalash. Bu usulni foydalanishning talabi aniq masala koyilishi va u proektni bajarish vaqtida yechilishi lozim.

Loyihani bajarishning asosiy tamoyillari quyidagicha:

Loyihaning maqsadi real hayotiy vaziyatga bogliqligi;

- Talabalarning loyihani bajarishga qiziqishi. Loyihani bajarish muvaffaqqiyatli bolish uchun talabalar qiziqishi va o’qituvchi tomonidan ularning motivatsiyasi bilan omadli bajaralishi mumkin;
- Loyihani talabalar o’zlari mustaqil bajarishlari, o’zlari loyihani tanlashlari va uni bajarish rejasini tuzishlari kerak;
- Talabalarning o’zaro javobgarligi, loyiha bajarish vaqtida. Loyiha omadli bajaralishi uchun - ishlar togri tashkil etilishi va loyiha ishning hamma bosqichlarida qatnashchilarining hamkorlig keraki;
- Loyihani bajarishda aniq natijaga erishish. Bu tamoyilninng bajarilishi proektning mahsuloti yani loyihani namoyish etish(prezentatsiya).

Xulosa qilishimiz mumkin, innovatsion usullardan foydalanish o’quv jarayoni samarali bolishini ta’minlaydi, talabalarni ijodiy fikrlashiga, nazariy bilimlarni amaliyotda qollashga, mustaqil fikrlashga, real xolatlardan kelib chiqib eng optimal qarorlarni qabul qilish konikmalariga ega bolishiga.

O’quv jarayonida innovatsion usullardan foydalanish oliy malakaga ega mutaxassislar tayorlashning zarur sharoitlari bolib, kerakli professional kompetehsiyalar shakllanishida, bitiruvchilarning ishga jaoylashish va omadli faoliyat korsatishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Кейс-стади: принципы создания и использования. Тверь:Изд-во «СКФ-офис». 2015ю-114с.

2.Olimov Q.T. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. T;2017